

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*(2020- yil yanvar-dekabr, dastlabki ma‘lumot)*

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2093,6 ming so‘mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga oshdi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi**

*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

**Korxonalar va tashkilotlar soni**  
**102,1 %**



**Xodimlar soni**  
**99,9 %**

**Ish haqi fondi**  
**113,8 %**




**O‘rtacha ish haqi**  
**110,6 %**

*Ma‘lumot uchun: O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichidan bank, sug'urta va vositachilik faoliyati - 38,6 % ga, Tashish va saqlash-20,6 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati – 13,7 % ga viloyat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqoriligi kuzatildi.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

*(2020 yil yanvar-dekabr oylari uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*





Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida 2019-yilning mos davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sishi kuzatildi. Ayniqsa bank, sug'urta faoliyatida - 5088,3 ming so'mni, tashish va saqlash sohasida – 2750,9 ming so'mni tashkil etdi.


## Sanoat




## Qurilish




## Tashish va saqlash




Moliya va sug'urta faoliyati



Ta'lim



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish






**“Ta’lim” sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Ta’lim sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1800,2 ming so‘mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 6,3% ga oshgan.




Viloyatdagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko‘rsatkichlar Farg‘ona shahri - **134,7 %**, Qo‘qon shahri - **116,7 %**, Bog‘dod tumani – **108,4 %** va O‘zbekiston tumani – **103,1 %** hissasiga to‘g‘ri kelgan.





O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Shu bilan birga, 13 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.


Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Marg'ilon shahri - **98,9 %**, So'x tumani - **97,6 %**, Dang'ara tumani - **89,8 %** Oltiariq tumani – **85,9 %**, hissasiga to'g'ri kelgan.





## “Qurilish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Qurilish sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatida o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Qo‘qon shahri – **104,0 %**, Dang‘ara tumani - **139,0 %**, Farg‘ona shahri– **111,2 %**, hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Shu bilan birga, viloytaning 8 ta hududida ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyat o‘rtacha oylik ish haqi darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan sezilarli past ko‘rsatkichlari Yozyovon tumani - **89,8 %** Marg‘ilon shahri - **56,6 %** hissasiga to‘g‘ri keldi.

### O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m






## “Savdo” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Savdo sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyat o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Marg‘ilon shahri - **105,9 %** va Farg‘ona shahri - **107,0 %** hissasiga to‘g‘ri kelgan.




Shu bilan birga, viloyatning 5 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Uchko'prik tumani - 64,5 %, Qo'qon shahri - 85,9 %, Bog'dod tumani - 86,5 %, Toshloq tumani - 76,0 % hamda Quva tumani - 59,9 % hissasiga to'g'ri keldi.

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)






## “Sanoat” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Sanoat sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyat o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Bog‘dod tumani - **132,4 %**, Farg‘ona shahri - **111,5 %** va Qo‘shtepa tumani – **108,4 %** hissasiga to‘g‘ri kelgan.




Shu bilan birga, viloyatining 8 ta hududida ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko‘rsatkichlari Qo‘qon shahri - **92,3 %**, Toshloq tumani – **85,7 %**, O‘zbekiston tumani - **51,8 %**, Quvasoy shahri – **90,0 %**, Beshariq tumani – **67,6 %**, Uchko‘prik tumani - **49,0 %** hamda Quva tumani - **66,5 %** hissasiga to‘g‘ri keldi.

## O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)






## “Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

### o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyat o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Toshloq tumanida-**130,1%**, Farg‘ona shahrida -**112,7 %**, hamda Qo‘qon shahrida - **101,3 %** hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 ta hududda viloyatning o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichidan past bo‘ldi.

Xususan, viloyat ish haqiniga nisbatan past ko‘rsatkichlar Bog‘dod tumanida - **92,1 %**, Buvayda tumanida - **88,8 %**, O‘zbekiston tumanida - **85,9 %**, Dang‘ara tumanida - **88,0 %**, Beshariq tumanida - **74,2 %** hamda Toshloq tumanida - **78,3 %**, hissasiga to‘g‘ri kelgan.

### O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m




**“Tashish va saqlash” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Tashish va saqlash sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari Qo‘qon shahrida - **104,6 %** va Toshloq tumani - **103,2 %** kuzatildi.

**O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m**






Shu bilan bir qatorda, viloyatning 3 ta hududida tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Tashish va saqlash sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichida Farg'ona shahrida - **94,4 %**, Yozyovon tumani - **71,1 %** hamda Rishton tumani - **69,4 %** kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm






## “Moliya va sug'urta” faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari , ming so'm.  
(so'm)

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Moliya va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich %, Quvasoy shahrida – **125,6 %** va Qo'qon shahrida – **129,3 %** ni tashkil etdi

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi 16 ta hududda viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi. Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Farg'ona shahrida - **99,9 %**, Quva tumani- **80,5 %**, Uchko'prik tumani - **81,4 %**, Toshloq tumani- **39,7 %** hamda Toshloq tumani- **20,5%** viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.






## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, % da

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Viloyat bo'yicha 2020 – yilning yanvar-dekabr oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bank, sug'urta faoliyatida 38,6 % ga, tashish va saqlashda 20,6 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 13,7 % ga, qurilishda 1,2 % san'at, ko'ngil ochish va dam olishda 13,4 % ga, sanoatda 12,1 % ga, ta'lim sohasida 6,3 % ga, savdoda 87,5 % ga, axborot va aloqada 10,7 % ga o'sganligi kuzatildi.

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona shahrida 2799,0 ming so'mni, Qo'qon shahrida 2314,6 ming so'mni, Quvasoy shahrida 2122,1 ming so'mni va Marg'ilon shahrida 1846,8 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni Dang'ara tumanida 1592,0 ming so'mni, Farg'ona tumanida 1496,4 ming so'mni, tashkil etgan.



### Farg'ona viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

	yanvar- dekabr 2019- yil	yanvar- dekabr 2020- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	1893,6	2093,6	110,6
Farg'ona	2423,1	2799,0	115,5
Qo'qon	2042,6	2314,6	113,3
Quvasoy	1967,0	2122,1	107,9
Marg'ilon	1820,6	1846,8	101,4
Oltiariq	1624,9	1612,3	99,2
Qo'shtepa	1528,0	1846,0	120,8
Bog'dod	1702,6	1936,9	113,8
Buvayda	1482,0	1512,5	102,1
Beshariq	1416,2	1488,5	105,1
Quva	1541,1	1743,9	113,2
Uchko'prik	1604,5	1735,6	108,2
Rishton	1558,1	1733,4	111,3
So'x	1613,6	1774,9	110,0
Toshloq	1874,4	1978,7	105,6
O'zbekiston	1654,4	1716,6	103,8
Farg'ona	1450,6	1496,4	103,2
Dang'ara	1558,8	1592,0	102,1
Furqat	1704,3	1869,1	109,7
Yozyovon	1797,8	1890,2	105,1

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2020- yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **679 330** so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

**Farg'ona viloyati statistikasi  
Demografiya va mehnat statistikasi  
boshqarmasi**

Tel: (73) 241-97-74, 249-87-13